


Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster univesiteti talabalari tomonidan “Adiblar xiyoboni”
dagi atoqli adib Aleksandr Faynbergning haykali poyida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy hamda
sport tadbirlarini
BAYONI

2025-yil 15-oktyabr kuni Toshkent shahridagi “Adiblar xiyoboni”da Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti talabalari ishtirokida atoqli o‘zbek adibi Aleksandr Faynberg haykali poyida ma’naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi.




Tadbirning asosiy maqsadi yoshlarni adabiyot va san’at orqali milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishdan iborat bo‘ldi.



Ma’naviy qismda talabalarga Aleksandr Faynbergning hayoti, ijodi va o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot berildi. Talabalar tomonidan shoirning asarlaridan parchalar o‘qildi, adabiyotning jamiyat ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni yuzasidan suhbat o‘tkazildi.



Shundan so‘ng tadbir sport musobaqalari bilan davom ettirildi. Talabalar o‘rtasida jamoaviy o‘yinlar, voleybol, badminton va boshqa sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkazildi. G‘olib jamoalar universitet ma‘muriyati tomonidan esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



Tadbir davomida talabalar faol ishtirok etib, adabiyot, ma‘naviyat va sport uyg‘unligi inson kamolotida muhim o‘rin tutishini ta’kidladilar. “Adiblar xiyoboni”da tashkil etilgan mazkur ma‘naviy-ma’rifiy va sport tadbirlari talabalar uchun ruhiy madad, jamoaviylik, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi, shuningdek, milliy adabiyotga hurmatni kuchaytiruvchi muhim tashabbus bo‘ldi.

TXVU Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori:

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova